

## MATONATLI O'ZBEK XALQINING IKKINCHI JAHON URUSHIGA QO'SHGAN HISSASI

Podpolkovnik **Mirzaakbarov Baxrom Turamirzayevich**,  
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti  
Gumanitar fanlar kafedrasи o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada mardonavor o'zbek xalqining jang maydonlarida ko'rsatgan mardlik, jasorat, shijoat va front ortidagi fidokorona xizmatlari hamda fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan ulkan hissalarini xotirlash haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar.** mardlik, matonat, chang'i otryadi, chang'i batalyon, chang'i eskadroni, razvedka-qo'poruvchilik harakatlari va Qizil Armiya.

### ABSTRACT

*This article is about the memory of the brave Uzbek people's courage, bravery, courage and selfless service on the battlefields, as well as their enormous contribution to the great victory over fascism.*

**Keywords:** courage, fortitude, ski detachment, ski battalion, ski squadron, reconnaissance and sabotage activities and the Red Army.

*Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan tarixiy g'alabani ta'minlashga ko'pmillatli O'zbekiston xalqining qo'shgan hissasi beqiyosdir. Bugungi tinch va ozod, farovon hayotga erishish yo'lida fidoyi ota bobolarimiz namoyon etgan mardlik va jasoratni el-yuritimiz hech qachon unutmaydi.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,**  
**Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni**

Inson xotira bilan tirik, qadri bilan ulug'. Osonimizning musafffoligi, el-yurt tinchligi yo'lida fashizimga qarshi kurashib, yurtiga, qasamyodiga sodiq qolib, mardlik namunalarini ko'rsatgan Vatan fidoyilarining xotiralarini yod etib, ezgu ishlarni davom ettirish xaqimizga xos fazilatdir.

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor. Masalan, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi.

Yangi topilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'liga quroq olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Shuningdek, o'sha davrda "qulqoq" sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ham ma'lum bo'ldi. Shu borada yana ba'zi raqamlarni keltirib o'tsak: ilgari 396 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytildi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan. Mana, dahshatli urushda xalqimiz qanday og'ir yo'qotish va talofatlar bergen, qanday azob- uqubatlarni boshidan kechirgan![1].

Kelinglar yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol isboti sifatida murakkab ob-havo sharoitida jangovar harakatlarni olib borish uchun mo'ljallangan harakatdagi harbiy qismlarda dushmanga qarshi jang olib borgan o'zbek chang'ichi askarlarimiz to'g'risida ma'lumotlar berib o'tsak.

1941–1945 yillarda fashizm bosqiniga qarshi olib borilgan janglarda 49-armiya qo'shinlaridagi jangchilar katta jasorat ko'rsatganlar. Bu armiya tarkibida alohida chang'ichlar batalyonlari bo'lib, ular tarkibida o'zbek askarları ham bo'lgan. 49-armiya esa Oliy Bosh qo'mondonning 1941-yil 7-avgustdagı qarori bilan rezerv fronti 35-o'qchi korpusi, 35-armiya tarkibida tashkil topgan. Uning tarkibida 194-tog' o'qchi polki, 220, 248-o'qchi diviziyalari, 4-xalq lashkari, 396-korpus artilleriya polki va boshqa qismlar bo'lgan. 1941-yil oktabrida 49-armiya G'arbiy front tarkibiga kirgan va Mojalon mudofaa chizig'i Kaluga rayonida qayta joylashtirilgan. 49-armiya Mojaysk-Maloyaroslav mudofaa operatsiyasida dushmanga qarshi 1941-yil 14–20 noyabr kunlari harbiy operatsiya olib borgan.

Harbiy qismlarda chang'i batalyonlari tuzish va ulardan dushmanga qarshi janglarda foydalanish birinchi bor 1939–1940 yillardagi sovetfin urushida qo'llanilgan. Chang'i otryadlaridan dushman ortida jang va razvedka-qo'poruvchilik harakatlarda samarali foydalanilgan.

SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1939-yil 24-dekabrdagi №0672-sonli direktivasi asosida birinchi navbatda studentlar, xizmatchilar va ishchilardan ko'ngilli chang'i harbiy qismlari shakllantirilgan. 1940-yil fevral boshida 77 ta alohida chang'i batalyoni va 28 ta chang'i eskadroni tashkil etilgan. Shulardan 54 otryadi Qizil Armiya saflarida bo'lgan. 1940-yil yanvarida Boltiq flotida bir necha chang'i

qismlari tuzilgan. Bu chang‘i harbiy qismlari sovet-fin urushi davridagi g‘alabada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Ana shu tajriba 1941–1945 yillarda fashizm bosqiniga qarshi olib borilgan harbiy operatsiyalarda ustalik bilan qo‘llanilgan. Dushmanga qarshi frontlarda qish faslida olib borilgan harbiy janglarda chang‘i qismlari ham faol kurashganlar.

1941-1942 yillarda Moskva ostonasidagi hal qiluvchi janglarda va dushmanga qarshi hujumga o‘tish jarayonida 30 ta maxsus chang‘i batalyonni jangchilari mardonavor kurash olib borganlar. Og‘ir janglar olib borilishida zirhli texnika yetishmovchiligi oqibatida otliq va alohida chang‘i brigadalaridan dushman qamalini yorib o‘tishda samarali foydalanilgan. Nemis-fashist bosqinchilari bu chang‘i otryadlarining jangovorlik mahoratini, jang olib borish uslublariga tan berib, “Chang‘i ajali” otryadlari deb nomlashganlar. Bu chang‘i otryadlari urushning dastlabida dushmanning 3 ming askar va 47 ta ofitserlarini qirib yuborgan, 87 ta temir yo‘l postlarini portlatgan. Chang‘i batalyondagi harbiy askarlar Moskva mudofaasi janglarida mislsiz qahramonlik namunalarini namoyish etgan. Dushman ortida ham mahsus chang‘i guruhlari jang olib borgan. Orlov, Jitomir, Chernigov, Gomel, Brest oblastlarida va Polshani ozod qilish uchun olib borilgan dahshatl janglarda partizanlardan tuzilgan chang‘i otryadlari katta g‘alabaga erishganlar.

Mudofaa xalq komissari, Sovet Ittifoqi marshali I.V.Stalinning 1943-yil 23-oktabrda “О формировании лыжных частей” ya’ni “Chang‘i qismlarini shakllantirish to‘g‘risida”gi №6433-sonli buyrug‘idan so‘ng bu harbiy bo‘linmaga yanada katta ahamiyat berila boshlandi[2]. Biroq buyruqni bajarish uchun joylardagi harbiy qo‘mondonlik harbiy qismlarda jangchilarning kasbiy, milliy jihatdan o‘ziga hos holatlari hisobga olinmagan. Masalan o‘rtal osiyolik harbiy askarlar uchun chang‘ida jang olib borish nihoyatda mushkul edi. Chunki bu mintaqada o‘sha vaqtida chang‘idan foydalanish va chang‘i sporti rivojlanmagan edi. Shu bois ham “Chang‘i qismlarini shakllantirish to‘g‘risida”gi №6433-sonli buyrug‘ida 39-armiyadagi chang‘i qismlari chang‘i haqida tushunchaga ega bo‘lmagan janubiy rayonlardan (o‘zbeklar, qozoqlar) tashkil etilganligi tanqid ostiga olingan[3].

Haqiqatdan ham o‘zbek harbiylarining katta qismi tog‘li joylardagi harbiy operatsiyalarda chang‘ida yurish va jang olib borish tajribasiga ega bo‘lmaganligi oqibatida ularning katta qismi dushmanga qarshi janglarda halok bo‘lganlar. Ularni nomma-nom aniqlash o‘zbek tarixshunosligidagi muhim vazifalardan biridir. Chunki bu masala hozirgacha o‘rganilmagan edi. O‘zbekiston tarixinining IIkinchi jahon urushi mavzusiga bag‘ishlangan asar va maqolalarda o‘zbeklar, o‘zbekistonliklarning chang‘ida olib borgan urush harakatlari, berilgan qurbanlar haqida hech qanday ma’lumot berilmagan. Biz ushbu maqolada Belorus fronti chang‘i batalyonlarida

xizmat qilgan va janglarda halok bo‘lgan o‘zbekistonlik chang‘i jangchilaridan 10 nafari haqidagi ma’lumotni keltiramiz.

O‘zbekistonlik, 1925-yilda tug‘ilgan, 290-tonli o‘qchi diviziysi mahsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan oddiy askar Parpi Asqarov, 1943-yil 21-noyabrda Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Xondogi qishlog‘idagi jangda halok bo‘lgan. Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Xondogi qishlog‘ida dafn qilingan.

O‘zbekistonda tug‘ilgan, 290-tonli o‘qchi diviziysi mahsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan oddiy askar Asqarov No‘monjon, 1943-yil 20-noyabrda Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Xondogi qishlog‘ida jangda halok bo‘lgan. Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Xondogi qishlog‘ida dafn qilingan, qabr raqami 4846. Samarqand oblastida Royariq rayonida 1908-yilda tug‘ilgan, 76-Yelnensk diviziysi o‘qchisi mahsus chang‘i batalyonni xizmat qilgan qizil askar Aliqulov Olloqul, 1943-yil 2-dekabrda Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Bobrovo agro shaxarchasida jangda halok bo‘lgan. Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Bobrovo qishlog‘i shimoli-sharqidan 800 metr uzoqlikda birodarlik qabristoni yo‘lida dafn etilgan.

Farg‘ona oblasti Marg‘ilon shahrida 1925-yilda tug‘ilgan, 76-Yelnensk diviziysi o‘qchisi mahsus chang‘i batalyonni xizmat qilgan qizil askar Akbarov Ahmad, 1943-yil 18-noyabrda Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Bobrovo agroshaharchasida jangda halok bo‘lgan, Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Bobrovo qishloq savxozidan 800 metr uzoqlikdagi birodarliq qabristonida dafn etilgan.

Qoraqalpog‘istonlik, 1924-yilda tug‘ilgan, 62-tonli o‘qchi diviziysi maxsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan qizil askar Nosirov Salimon, 1943-yilda Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Volekovsk qishloq soveti Kalinovka agro shaxarchasida jangda halok bo‘lgan.

Xorazm viloyati Xonqa qishloq soveti Kommuna kolxozida 1919-yilda tug‘ilgan, 33 armiya 338-tonli o‘qchi diviziysi maxsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan qizil askar Olloberganov Qurbonboy, 1944-yil 16-yanvarda Vitebsk oblasti Liozno rayoni Liozno qishloq soveti Velikoye Selo qishlog‘ida jangda yarador bo‘lib halok bo‘lgan. Vitebsk 49 oblasti Liozno rayoni Kanashkovo qishlog‘ida dafn etilgan.

O‘zbekistonda 1910-yilda tug‘ilgan, 290-tonli o‘qchi diviziysi maxsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan oddiy askar Ortiqov Alijon, 1943 yil 24 noyabrda Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Xondogi qishlog‘ida jangda halok bo‘lgan. Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Xondogi qishlog‘ida dafn qilingan.

O‘zbekistonda 1917-yilda tug‘ilgan, 290-tonli o‘qchi diviziysi maxsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan oddiy askar Sharipov Muxtor, 1943-yil 19-noyabrda

Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Xondogi qishlog‘ida jangda halok bo‘lgan. Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Xondogi qishlog‘ida dafn qilingan.

O‘zbekistonda 1923-yilda tug‘ilgan, 290-sonli o‘qchi diviziyasi maxsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan oddiy askar Yusupov G‘oyib, 1943-yil 29-noyabrdan Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Xondogi qishlog‘ida jangda halok bo‘lgan. Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Xondogi qishlog‘ida dafn qilingan.

Toshkent viloyatida 1903-yilda tug‘ilgan, 290-sonli o‘qchi diviziyasi mahsus chang‘i batalyonida xizmat qilgan oddiy askar Sultonov Muxammadjon, 1943 yil 23 noyabrdan Vitebsk oblasti Dubrovo rayoni Malosavinsk qishloq soveti Xondogi qishlog‘ida jangda halok bo‘lgan. Vitebsk oblasti Durovensk rayoni Xondogi qishlog‘iga dafn etilgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan yurtdoshlarimiz Vatan uchun jonlarini ayamasdan jang qilib haqiqiy qahramon sifatida tarixda o‘chmas nom qoldirdilar

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda mamlakatimizda Ikkinci jahon urushining har bir qatnashchisiga g‘amho‘rlik ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ularning har biriga moddiy, ma’naviy va boshqa turdagি yordamlar berilmoqda. Bularning barchasi yangi O‘zbekistonda xalq jasoratiga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom namunasidir. Zero, tarixiy xotira barchamizni o‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh bo‘lish, ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga da’vat etadi. Insoniyatni fashizm halokatidan asrab qolish yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatgan har bir yurtdoshimiz nomi unitilmaydi, avlodlar uchun muqaddas xotira bo‘lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Bo‘riboyev. “O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida” kitob-albom. -T.: “O‘zbekiston”, 2021. 10, 272-b.
2. “О формировании лыжных частей” приказ №6433.ЧК СССР от 23 октября 1943 года.
3. Русский архив: Великая Отечественная: Том 13 (2-3). Приказы Народного комиссара обороны СССР (1943–1945 гг.) // М: Терра, 1997. Электронный ресурс: [http://militera.lib.ru/docs/0/txt/nko\\_1943–1945.rar](http://militera.lib.ru/docs/0/txt/nko_1943–1945.rar).